



THE IMPORTANCE OF DUAL EDUCATION IN TRAINING IN THE LIGHT INDUSTRY

Feruza Anarboyeva¹

Pop district, Namangan region, Polytechnic No. 1.

Article History	Abstract
Received: 10.10.2025 Accepted: 30.12.2025	This article presents an opinion on the organization and development of dual education in the light industry of Uzbekistan, the advantages, essence, goals and objectives of the dual education system over traditional education. It also analyzes the theoretical and practical aspects of dual education, its role in the quality of education and the development of professional competencies of graduates.

Keywords: dual education, light industry, vocational education, internship, labor market, competence.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Production master, Pop district, Namangan region, Polytechnic No. 1, Uzbekistan

YENGIL SANOAT SOHASINI O'QITISHDA DUAL TA'LIMNING AHAMIYATI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

dual ta'lim, yengil sanoat, kasbiy ta'lim, amaliyot, mehnat bozori, kompetensiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada O'zbekistonning yengil sanoat sohasida dual ta'limni tashkil etilishi va rivojlanishi, dual ta'lim tizimining an'anaviy ta'limga nisbatan afzalliklari, mohiyati, maqsad va vazifalari xususida fikr bayon etilgan. Shuningdek, dual ta'limning nazariy va amaliy jihatlari, uning ta'lim sifati hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

KIRISH

Yengil sanoat sohasi mamlakatimiz tarixining ajralmas qismi bo'lib, o'rta asrlardan buyon mohir hunarmand ajdodlarimiz tomonidan jahonda yagona va o'ziga xos ishlab chiqarish maktablari yaratildi.


Yengil sanoat sohasining jadal rivojlanishi malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasini dolzarb etmoqda. An'anaviy ta'lim tizimi ko'pincha nazariy bilimlarga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish talablariga to'liq javob bera olmaydi. Shu sababli ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan dual ta'lim texnologiyasini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 233 ta texnikumda 123 ming 530 nafar o'quvchi kunduzgi, sirtqi, kechki va dual ta'lim shakllari bo'yicha o'qitilmoqda. Ularga sifatli va zamon talalariga mos ta'lim berishustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shuning uchun dual ta'lim ishlab chiqarish jarayoniga mos kadrlar tayyorlashda, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda va ta'lim bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutni kamaytirishda katta ahamiyatga ega.

Dual ta'lim texnologiyasi zamonaviy kasbiy ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonini ikki muhim muhitda - ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasida parallel tashkil etishni nazarda tutadi. Dual ta'limning nazariy asoslari pedagogika, kasbiy ta'lim nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv hamda ta'limning tizimli va amaliy yo'naltirilgan tamoyillariga tayangan holda shakllangan.


Ilmiy adabiyotlarda dual ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda nazariya va amaliyotni uzviy bog'lashga qaratilgan ta'lim modeli sifatida talqin etiladi. "Dual" atamasi lotincha *dualis* - "ikkiyoqlama" ma'nosini anglatib, ta'lim jarayonining ikki subyekt - ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligida olib borilishini ifodalaydi. Ushbu modelda o'quvchi bilim oluvchi emas, balki ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllanadi.

Dual ta'lim texnologiyasining pedagogik asoslari quyidagi yondashuvlarga tayanadi:



Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.


Dual ta'lim texnologiyasining asosiy nazariy tamoyillaridan biri — nazariya va amaliyot integratsiyasidir. Ta'lim muassasasida beriladigan nazariy bilimlar ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lanadi. Bu jarayonda o'quvchilar nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa bilimlarning mustahkamlanishi va kasbiy malakaning shakllanishiga olib keladi.



Ta'lim muassasasi nazariy bilimlar berish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va nazoratni amalga oshirsa, korxona amaliy tayyorgarlik, ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish

va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun mas'ul hisoblanadi. O'quvchi esa ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida faol ishtirok etadi.

Dual ta'lim texnologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:



Dual ta'lim texnologiyasining muhim nazariy jihatlaridan biri uning mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchanligidir. Ta'lim mazmuni ishlab chiqarish korxonalarining real ehtiyojlari asosida shakllantiriladi, bu esa bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Dual ta'lim texnologiyasining nazariy asoslari pedagogik, didaktik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning uzviy uyg'unligiga tayanadi. Ushbu texnologiya nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali kasbiy ta'lim sifatini oshirishga, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Yengil sanoat sohasining barqaror rivojlanishi bevosita ushbu tarmoq uchun yuqori malakaga ega, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarni mujassamlashtirgan kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir. Tikuvchilik, to'qimachilik, trikotaj, poyabzal va boshqa yengil sanoat yo'nalishlari ishlab chiqarish jarayonining texnologik murakkabligi hamda tez yangilanib borishi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur sohada kadrlar tayyorlashda dual ta'lim texnologiyasini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yengil sanoat tarmoqlari yuqori darajada amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy tikuv va to'qimachilik uskunalari, avtomatlashtirilgan texnologiyalar, sifat nazorati tizimlari keng qo'llaniladi. An'anaviy ta'lim shakllarida bu jarayonlarni to'liq o'zlashtirish imkoniyati cheklangan bo'lib, nazariya va amaliyot o'rtasida tafovut yuzaga keladi. Dual ta'lim esa ushbu muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlarni o'tab, real mehnat sharoitida ishlashni o'rganadilar. Bu jarayonda texnologik jarayonlarni boshqarish, ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish va sifat nazorati va texnik xavfsizlik talablarini bajarish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Yengil sanoat sohasida dual ta'limning ahamiyati nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligida yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasasida o'rganilgan materialshunoslik, konstruksiyalash, dizayn va texnologiya fanlari ishlab chiqarish muhitida mustahkamlanadi. Natijada o'quvchilarning bilimlari tizimli va puxta shakllanadi.

Dual ta'lim texnologiyasi yengil sanoat sohasida bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Chunki o'quvchilar o'qish jarayonidayoq korxona faoliyati bilan tanishib, mehnat jamoasiga moslashadi. Ko'plab hollarda dual ta'lim asosida tayyorlangan bitiruvchilar ishlab chiqarish korxonalarida doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanadi.

Yengil sanoat sohasida dual ta'limni joriy etish ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida mustahkam hamkorlikni talab etadi. Bu hamkorlik o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Natijada ta'lim mazmuni va ishlab chiqarish talablari o'rtasidagi uzviylik ta'minlanadi.

Dual ta'lim texnologiyasi yengil sanoat tarmog'ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Malakali kadrlar tayyorlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mahsulot sifati yaxshilanadi va tarmoqning raqobatbardoshligi kuchayadi. Shu bilan birga, yoshlarning bandligi ta'minlanib, ularning ijtimoiy moslashuvi jadallashadi.

Dual ta'lim texnologiyasining samaradorligi ta'lim jarayonida nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi. Mazkur ta'lim modeli an'anaviy o'qitish shakllariga nisbatan yuqori natijadorlikka ega bo'lib, kasbiy ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi.

Dual ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi, bu esa bilimlarning uzoq muddatli saqlanishiga va real vaziyatlarda qo'llanilishiga imkon yaratadi. O'quvchilar o'rganilayotgan fan va kasbiy bilimlarning amaliy ahamiyatini to'liq anglab yetadilar.

Dual ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichi - o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishidir. Amaliyot jarayonida o'quvchilar texnologik jarayonlarni boshqarish, ishlab chiqarish muammolarini hal etish, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va mehnat intizomi va mas'uliyatni shakllantirish kabi muhim kasbiy sifatlarni egallaydi.

Dual ta'lim texnologiyasi asosida tayyorlangan mutaxassislar ishlab chiqarish muhitiga tez moslashadi. Ular real mehnat sharoitida ishlash tajribasiga ega bo'lgani sababli yangi ish joyiga moslashish davri qisqaradi. Bu holat ishlab chiqarish korxonalari uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, kadrlarni qayta tayyorlashga ketadigan vaqt va mablag'larni tejaydi.

Dual ta'limning samaradorligi bitiruvchilarning bandlik darajasi bilan ham bevosita bog'liq. Ish beruvchilar amaliy tajribaga ega, ishlab chiqarish jarayonlarini biladigan

mutaxassislarni afzal ko'radilar. Dual ta'lim asosida tayyorlangan bitiruvchilar esa mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lib, ularning ishga joylashish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi.

Dual ta'lim texnologiyasi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. O'quv dasturlari ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtiriladi, ta'lim mazmuni esa real iqtisodiy talablar asosida yangilanib boriladi. Bu jarayon ta'lim tizimining moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi.

Dual ta'lim texnologiyasi nafaqat ta'lim sifati, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Yoshlarning bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, malakali ishchi kuchini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati oshadi.

Germaniyada dual ta'lim bitiruvchilari uchun ish bilan ta'minlanish darajasi 92.2 % ni tashkil etadi, bu Yevropa Ittifoqi o'rtachasidan sezilarli darajada yuqoridir (EU - 80 %) - bu dual ta'limning mehnat bozoriga mos kadr tayyorlash samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, Germaniyada o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (VET) bo'yicha o'quvchilarning katta qismi 88 % dual ta'lim shaklida tahsil oladi, bu sistemaning jadal joriy etilganidan dalolat beradi.

Yuqori ta'limdan farqli o'laroq, dual VET bitiruvchilari uchun Germaniyada yoshlar bandligi juda yuqori darajada. 2024 yilda VET bitiruvchilarining 92,2 % ish bilan ta'minlangan, bu Yevropa Ittifoqi o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori.

Qozog'istonda dual ta'lim tizimi joriy etilgan kollej bitiruvchilarining - 79 % ishga joylashadi. Bu yerda 518 ta korxona bilan 410 ta kollej hamkorlik qilmoqda, bu esa ta'limchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mustahkam bog'liqlikni anglatadi.

Dual ta'limning samaradorligini oshirishda ta'lim natijalarini muntazam monitoring qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalari kompleks baholanadi. Bu esa ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim texnologiyasi kasbiy ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ta'lim modeli hisoblanadi. U nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirib, mehnat bozoriga mos, malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga imkon beradi. Dual ta'lim texnologiyasini keng joriy etish ta'lim sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" GI O'RQ637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152- son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/152/0773- son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16 yanvardagi 14-son "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
4. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2025 y., 09/25/14/0063-son.
5. Ashurova S.Y, Umataliyeva K. T, Dual ta'lim metodlari: Nazariy asoslari,modellari va qo'llanilishi, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2024 yil 2-son.
6. Sharipov Sh.S., Raxmonova V.Q. Oliy va Professional ta'lim tizimida dual ta'lim orqali fanlararo uzviylikni ta'minlash.Ma'naviy ma'rifiy jurnal. 2024 yil 2-son.